

KONFERENSIYALAR.COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**VII RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

SENTYABR, 2025



ELEKTRON NASHR:
<https://konferensiyalar.com>

KONFERENSIYALAR.COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

**VII RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, sentyabr

TOSHKENT-2025

ISSN - 3093-8791

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.

VII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
1-jild, 7-son (sentyabr, 2025-yil). – 81 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 25-avgust

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi VII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rinni bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzARB muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huqular himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2025-yil

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

MUNDARIJA

TEXNIKA FANLARI

Karimov Rustam

TO'QUV JARAYONIDA TANDA VA ARQOQ IPLARINING O'ZARO ISHQALANISHINING SIFAT VA ISH UNUMDORLIKGA TA'SIRINI O'RGANISH	5-11
--	------

QISHLOQ XO'JALIGI FANLARI

Toxirov Kozim

MASOFADAN ZONDLASH MATERIALLARIDAN FOYDALANIB QISHLOQ XO'JALIK YERLARINI DEGRADATSIYAGA UCHRASH HOLATLARINI MONITORING QILISH	12-15
--	-------

TARIX FANLARI

Rahmatov Muhriddin

XALQ DORILFUNUNI TARIXI VA FAOLIYATI	16-19
--	-------

Norov Shuhrat

ZARAFSHON VOHASI YOSHLARI MISOLIDA: IJTIMOIY FAOLLIK VA IQTISODIY ERKINLIK	20-23
---	-------

Abdimurodova Zebiniso

TERMIZ MUZEYI — O'RTA OSIYO JANUBIDAGI ILK MUZEY	24-29
--	-------

IQTISODIYOT FANLARI

Олеся Авдошкина

ВНЕДРЕНИЕ ЗАРУБЕЖНЫХ ПРАКТИК ГОСУДАРСТВЕННОЙ ФИНАНСОВОЙ ПОДДЕРЖКИ МАЛОГО БИЗНЕСА	30-35
---	-------

Суюнова Саодат

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ МАРКЕТИНГОВЫХ СТРАТЕГИЙ И ЭКОТУРИЗМА	36-41
---	-------

FILOLOGIYA FANLARI

Zokirova Barchinoy

LAKONIZMNING ADABIY-NAZARIY ASOSLARI VA USLUBIY TAMOYILLARI	42-45
---	-------

Eshchanova Mavjuda

INGLIZ VA O'ZBEK MEDIA DISKURSIDAGI EVFEMIZMLARNING MADANIY FARQLARI VA ULARNING TARJIMADA SAQLANISHI MASALALARI	46-49
---	-------

Razikov Baxtiyor

EMOJI VA HASHTAG BIRLIKHLARI NEOLOGIZM SIFATIDA: FUNKSIONAL-PRAGMATIK KUZATUV	50-52
--	-------

YURIDIK FANLARI

Nishanov Sanjar

SUDYALAR HUQUQIY ONGI SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHIGA TA'SIR QILUVCHI OB'EKTIV VA SUB'EKTIV OMILLAR	53-59
---	-------

PEDAGOGIKA FANLARI

G'aniyev Shaxzod

TARIX O'QITUVCHILARI UCHUN RAQAMLI KONTENT YARATISH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI	60-65
---	-------

Najmetdinova Nargiza

TA'LIM JARAYONIDA SUN'IY INTELLEKTDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASPEKTLARI	66-69
--	-------

TIBBIYOT FANLARI*Yuldasheva Zulkhumor*COMPARATIVE OBSERVATION OF ARRHYTHMIAS IN HEALTHY PREGNANT WOMEN AND
THOSE WITH MITRAL VALVE PROLAPSE: A CLINICAL PERSPECTIVE 70-73**SIYOSIY FANLARI***Toshpulatov Shohruxbek*

MARKAZIY OSIYODAGI LOGISTIK TARMOQ 74-80

ZARAFSHON VOHASI YOSHLARI MISOLIDA: IJTIMOIY FAOLLIK VA IQTISODIY ERKINLIK

Norov Shuhrat Suvonovich

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti
"Ijtimoiy-gumanitar fanlar va jismoniy tarbiya" kafedrasи mudiri
Navoiy, O'zbekiston

Annotatsiya. Ushbu maqolada Yangi O'zbekistonda yoshlarga bo'lgan e'tibor, Zarafshon vohasi yoshlari va ularning ijtimoiy-siyosiy faolligi, ularning bo'sh ish o'rirlari bilan ta'minlanishi hamda ularning iqtisodiy tomonlama qo'llab quvvatlanishi to'g'risdagi ma'lumotlar keltirilib o'tilgan.

Kalit so'zlar: so'zlar: "Yoshlarga oid davlat dasturi", "Yoshlar kelajagimiz", mahalla, mehnat yarmarkalari, yosh kadrlar, texnologik savodxonlik, itimoiy faoliyat, "Karyera kuni".

THE EXAMPLE OF THE YOUTH OF ZARAFSHAN OASIS: SOCIAL ACTIVITY AND ECONOMIC FREEDOM

Norov Shuhrat Suvonovich

Doctor of Philosophy (PhD) in Historical Sciences, Associate Professor
Navoi State University of Mining and Technology
Head of the Department of "Social and Humanities and Physical Education"
Navoi, Uzbekistan

Annotation. this article presents information on the attention to young people in New Uzbekistan, the youth of Zarafshan Oasis and their socio-political activity, their provision of vacancies and their economic support.

Key words: "state program on Youth", "our future of Youth", neighborhood, labor fairs, young personnel, technological literacy, Indigenous activism,"working day".

DOI: <https://doi.org/10.47390/ydif-y2025v1i7/n04>

Rivojlanish sari ildam qadamlar bilan harakatlanayotgan O'zbekistonning asosiy rivojlantiruvchi kuchi yoshlar qatlami hisoblanadi. Bugungi kunda O'zbekistonda yoshlar siyosati davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan bo'lib, ularga har sohada e'tibor qaratish, mavjud muammolarni hal etish ustuvor masalalardan biri hisoblanadi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan Yangi O'zbekiston va unda olib borilayotghan islohatlar haqida shunday fikrlar keltiriladi: Yangi O'zbekiston orzusi bugungi kunlarimizga nisbatan aytganda, hozirgi davrning taqozosi, uning asl qiyofasini, harakatlantruvchi kuchlari va omillarini belgilaydigan g'oyaviy- ma'naviy asos, xalqimizga xos buyuk buniyodkorlik hissi bilan yashash va keng ko'lamli islohotlarimizning yaqqol ifodasıdir[1].

Yoshlar – har qanday jamiyatning eng faol, ijodkor va yangilikka intiluvchi qatlamidir. Mamlakat taraqqiyoti, millat kelajagi, ijtimoiy hamda iqtisodiy barqarorlik barcha tomonlama yoshlarning, bilimiga, salohiyatiga va faolligiga bog'liqdir. O'zbekistonda yoshlar siyosati mustaqillik davrlaridan boshlab eng ustuvor va isloh qilinishi zarur bo'lgan masalalar qatoriga

kiritilganligi bilan ahamiyatlidir. Bu siyosat orqali davlat yoshlarning ta'lif olish huquqini kafolatlab ularning ilmiy salohiyatini yuksaltirishga dastlabki qadamlani qo'yishga ko'maklashadi va bu davlatimizning bosh qomusi bo'lmish, Konstitutsiyaniz bilan ham qonuniy jihtadan kafolatlanib qo'yilgan. Har bir yoshning bnatligini ta'minlash, ularni moliyaviy tomonlama qo'llab quvvatlashga ham alohida ahamiyat qaratilib kelinmoqda. Chunki, yoshlarning ish bilan ta'minlanishi nafaqat ular uchun balki, jamiyat taraqqiyoti va millatning kelajagi uchun ham katta ahamiyatga egadir. "O'zbekiston – 2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi bo'lib yoshlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan dasturdir. 2024- yil 21-fevralda Prezident tomonidan qabul qilingan ushbu farmon doirasida yoshlar bandligini ta'minlashga qaratilgan bir qator chora va farmonlar belgilab olingen edi va shu asosda qator chora tadbirlar amalga oshirilmoqda. Zarafshon vohasida ham ushbu dastur ijrosi doirasida yoshlar bandligini ta'minlashga qaratilgan sa'yи harakatlar amalga oshirilib, yoshlarning bandligi va ijtimoiy-faolligi oshirilmoqda.

"Yoshlar va xotin-qizlar bandligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar belgilandi". Ushbu qaror 2024-yilning 14-iyulida qabul qilingan ushbu farmon yoshlar va ayollar bandligini ta'minlashga qaratilgan chora va tadbirlarni o'z ichiga oladi. Framon bo'yicha mikroqarz olish niyatidagi yoshlar va ayollarning bandligi ta'minlanishi belgilab o'tilgan. Shu maqsadda, Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasidan 2 million-dollar kredit ajratish ko'zda tutilgan. Zarafshon vohasida ham ushbu farmon ijrosi doirasida yoshlar va ayollar uchun tadbirkorlikka bepul o'qitish dasturlari tashkil etilgan. Xususan, Buxoro viloyatining G'ijduvon tumanida 18 nafar xotin-qiz, jumladan, enaga-tarbiyachi, qandolatchi, oshpaz va tikuvchilik yo'nalishlariga qiziqish bildirgan bo'lib, ularning 10 nafari tadbirkorlik faoliyati bilan ham shug'ullanish rejalarini ishloab chiqishmoqda. Viloyatda 2025 yil yakuniga qadar viloyatda kambag'allik darajasi 7,3 foizga, ishsizlik darajasi esa 5,1 foizga tushishi rejalshtirilgan. [2]

Samarqand viloyati 2024-yil 21-fevralda qabul qilingan Prezident farmoniga muvofiq, "O'zbekiston – 2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirish dasturi tasdiqlangan bo'lib, ushbu dastur yoshlar bandligini ta'minlashga keng qamrovli chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi: 925 ming nafar yoshni ish bilan ta'minlash, 100 mingni sanoat loyihibariga, 150 mingni xizmat sohasi va 200 mingni o'zini-o'zi band qilish orqali ishga yo'naltirish rejalshtirilgan edi. 2025- yilda faoliyot yanada yuqori darajada olib borildi: viloyat miqyosida xalq deputatlari kengashlarida yoshlar, ijtimoiy muammolar va sport masalalari muhokama qilindi. "Yoshlar daftari" bo'yicha ro'yxatda turuvchi yoshlarga o'quv hujjatlari qoplangan, forumlar orqali esa 10 ming yosh qo'llab-quvvatlangan.

Navoiy viloyatida ham ushbu dastur ijrosi doirasida yoshlar bandligini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Har bir tumanlar kesimida mehnat yarmirkalari tashkil etilib, ularda o'z sohalari bo'yicha yoshlar ish o'rinalarini topishmoqda. Masalan, Navbahor tumanida "Karyera kuni" mehnat yarmarkasi tashkil etilib, 74 ta korxona 158 ta bo'sh ish o'rni bilan ishtirok etdi. Tadbirda 700 ga yaqin fuqarolar qatnashdi, ulardan 23 nafari ishga joylashtirildi, 25 nafari kasb-hunarga o'qishga yo'naltirildi va 2 nafari jamoat ishlariga jalb qilindi. Mazkur hujjatlar ijrosi doirasida mamlakatimiz bo'ylab jami qariyb 117 ming yoshning bandligi ta'minlangan.[3]

Mamlakatimizning kuchli ijtimoiy siyosatida yoshlar eng ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ularning sifatli ta'limi va kasb berish, intilishlarini qo'llab- quvvatlash doimiy

e'tibor markazida. Har bir mahallada "Yoshlar bandligi" dasturi amlaga oshirilmoqda, "Besh tashabbus olimpiadasi", "Madaniyat karvoni" tadbirlari[5] va turli tanlovlardan o'tkazilib yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, vaqtlarini unumli o'tkazishga ham hissa qo'shmoqda. Zamonaviy jamiyatda yoshlarning iqtisodiy faolligi va ijtimoiy mas'uliyati tobora muhim ahamiyat kasb etib borayotgan bu davrda, yoshlarga o'z g'oyalari va tashabbuslarini amalgalash uchun qulay sharoitlar yaratish, ularning tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish bilan ularning bandligini ta'minlash dolzarb masalaga aylanmoqda. Tadbirkorlik — nafaqat shaxsiy daromad manbai, balki yangi ish o'rinni yaratish, innovatsiyalarni ilgari surish va mahalliy iqtisodiyotni kuchaytirish vositasi ham hisoblanadi. Yoshlarning aksariyati mehnat bozoriga endi qadam tashlab kelishmoqda. Ular yetarlicha tajribaga emas bo'lsalarda, yangicha fikrlash, texnologik yangiliklarga bo'lgan e'tibori hamda moslashuvchanligi, motivatsiyalari bilan yuqori avloddan ajralib turadi. Shu sabalarning barchasi, ularga boshlang'ich kapital, bilim va amaliyotni taqdim etilishini nihoyatda muhim ekanligini ko'rsatib bermoqda. Bugungi kunda statistik ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda aholining qariyb 60 foizi 30 yoshgacha bo'lganlar hissasiga to'g'ri keladi. Bu esa mamlakatning katta demografik imkoniyati borligini anglatadi. Agar ushbu kuchli resurs to'g'ri yo'naltirilsa, u iqtisodiy o'sishning asosiy boshqaruvchisiga aylanishi mumkin. Yoshlar tadbirkorligi uchun eng katta to'siqlardan biri – bu moliyaviy mablag'larning taqchilligidir. Shu maqsadda hukumat tomonidan bir qator imtiyozli kreditlar yoshlarni qo'llab-quvvatlash uchun ajratilmoqda. Tijorat banklaridagi odatiy kreditlardan ancha past foizlar bilan yoshlarga o'z bizneslarini boshlash uchun amaliy yordam ko'rsatilmoqda. Qolaversa, hunarmandchilik faoliyatini boshlayotgan yoshlarga ham 5 turdag'i qo'llab-quvvatlashni o'z ichiga oladigan subsidiyalar berilmoqda.

Qolaversa bugungi texnologiya dunyosida IT sohasiga alohida e'tibor berilmoqda va albatta yosh avlod ularni o'rganishga va foydalanishga bo'lgan qiziqishi yuqori. O'zbekistonda IT sohasiga yoshlarning qiziqishlarini inobatga olingan holda har bir viloyat kesimida IT parklari tashkil etilmoqda. Anashunday parklardan biri Navoiy shahrida 2024-yil 7-mart sanasida foydalanishga topshirildi va unda o'z iqtidorlari bilan yangi loyihalarni ustida ishlayotgan yoshlar ko'pchilikni tashkil etadi[6]. Shu kabi IT sohasida startap ochayotgan yoshlar uchun ham innovatsion loyihalarini boshlash uchun subsidiya ajratilmoqda. Albatta bu sohada nafaqat mablag', balki tegishli bilim va ko'nikmalar ham oshirish zarur. Shu maqsadda yetarlicha tajribaga ega bo'lgan ishbilarmonlar tomonidan respublika bo'y lab o'quv kurslari, seminarlar va biznes-treninglar tashkil etilmoqda. Ushbu treninglarda biznes-reja tuzish va moliyaviy rejalshtirish, bozor tahlili va marketing kabi mavzular batafsil tushuntirilmoqda. Qolaversa yana bir yorqin imkoniyat sifatida, xalqaro hamkorlik loyihalari – BMT, UNDP, GIZ kabi tashkilotlar bilan hamkorlikda tashkil etilgan o'quv dasturlari ham yoshlarning ushbu sohada tajriba ortirishlariga imkoniyat yaratmoqda.[7]

O'zbekiston ham so'nggi yillarda yoshlar siyosatini tubdan isloh qilish, ularning imkoniyatlarini yanada kengaytirish, tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash hamda muammolarini hal qilish bo'yicha qator davlat dasturlari, qonun hujjatlari va amaliy loyihalarni yo'lga qo'ymoqda. Biroq, hali har bir tizmida yetarlicha muammolar mavjud, tizimdag'i kamchiliklar hamda hududlararo o'zaro nomutanosibliklar muhim analiz va tahlillarni talab qilishi bilan birgalikda o'ziga xos muqobil yechimni ham kutmoqda[8]. Jumladan, poytaxt va viloyat markazlarida imkoniyatlar ko'proq bo'lsa-da, qishloqlar va olis chekka hududlarda yoshlar uchun infratuzilma, sport, ta'lim va bandlik imkoniyatlari cheklanganligi, yoshlar har

sohada to'liq qo'llab-quvvatlanmasligi, koruupsion holatlarning kuzatilishi kabi holatlar uchramoqda budan tashqari yoshlarning puxta bilim olishi, sog'lom hayot kechirish, ijtimoiy faollik, atrof- muhit muhofazasiga bo'lgan e'tiborini oshirish ham dolzarb masalalardan bo'lib qolmoqda. Mavjud muammaolarni bartaraf etgan holatda yosh avlodga munosib shart-sharoitlarning yaratilishi ularningadolatli qo'llab- quvvatlanishi ertangi farovon kunimizning mustahkam poydevoridir.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Yangi O'zbekiston taraqqiyot starategiyasi. To'ldirilgan ikkinchi nashr.- Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2023. B.416
2. Sh.Mirziyoyev "Hozirgi zamon va O'zbekiston"-Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti,2024-yil. B.560.
3. Sh.Mirziyoyev Yangi O'zbekiston tarqqiyot strategiyasi. To'ldirilgan ikkinchi nashr. -T: "O'zbekiston" nashryoti,2023-yil. 416- bet
4. Sh.Mirziyoyev Erkin va farovon, demokratik davlatini birligida barpo etamiz. T: "O'zbekiston" nashryoti, 2017-yil 62- bet.
5. Xalq qabulxonalari qishloq yoshlari bandligini ta'minlamoqda
https://pm.gov.uz/oz/lists/view/800?utm_source=chatgpt.com
6. 2016 yil 14- sentyabrda "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonun
<https://lex.uz/docs/3026246>
7. Juraev S.A. Osobennosti formirovaniya gosudarstvennoy molodejnoy politiki Respublikи Uzbekistan v perexodniy period: teoriya i praktika. Ar.diss...dok.politol.n...-T., 1994. -S.17
8. Xajieva Iroda, Babadjanova Umida, Kenjayeva Khurshida, Adambaeva Feruza. The importance of spiritual values in the upbringing of the harmoniously developed person in teaching and learning process. International Journal of Advanced Science and Technology. 29(5). P. 1496-1499

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

VII RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2025-yil, sentyabr

Mas'ul muharrir:

F.T.Isanova

Texnik muharrir:

N.Bahodirova

Diszayner:

I.Abdihakimov

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.

VII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
1-jild, 7-son (sentyabr, 2025-yil). – 81 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 25-avgust

Barcha huqular himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2025-yil.

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil.